

BOBORAHIM MASHRABNING “KIMYO” ASARI: TOSHBOSMA VA ZAMONAVIY NASHRLARNING QIYOSIY TAHLILI

Narzullayeva Sarvinoz Ismoil qizi,

O‘zbekiston Milliy universiteti,

Jurnalistika va o‘zbek filologiyasi fakulteti,

Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik(O‘zbek tili) yo‘nalishi 4- kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Boborahim Mashrabga nisbat berilgan “Kimyo” masnaviysining toshbosma va zamonaviy nashrlari qiyosiy-tekstologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida asarning 1898- va 1906-yillardagi Toshkent toshbosma nusxalari, turk olimi Sadi Gedik tomonidan tayyorlangan “Kîmyâ Mesnevisi” (2020) hamda Habibulloh Akmalxon tomonidan amalga oshirilgan zamonaviy o‘zbek tabdili (Toshkent, 2023) asosiy manba sifatida ko‘rib chiqiladi. Maqolada uchala nusxadagi transkripsiya farqlari, qofiya tizimidagi o‘zgarishlar, terminologik ayniyat va tafovutlar hamda tabdil jarayonidagi tahririy aralashuvlar aniq matniy dalillar asosida baholanadi.

Kalit so‘zlar: Boborahim Mashrab, “Kimyo” masnaviysi, matnshunoslik, toshbosma nusxa, tabdil, qiyosiy tahlil, Sadi Gedik, chig‘atoy tili, tasavvufiy adabiyot.

Аннотация. В данной статье проводится сравнительно-текстологический анализ литографических и современных изданий поэмы “Кимё” (Книга алхимии), приписываемой Боборахиму Маширабу. В рамках исследования в качестве основных источников рассматриваются ташкентские литографические списки 1898 и 1906 годов, транскрибированное издание турецкого исследователя Сади Гедика “Kîmyâ Mesnevisi” (2020) и современная узбекская адаптация (табдил) Хабибулло Акмалхона (Ташкент, 2023). На основе конкретных текстовых свидетельств оцениваются различия в транскрипции, изменения в системе рифмовки, терминологические совпадения и расхождения, а также редакторские вмешательства в процессе адаптации текста.

Ключевые слова: Боборахим Машираб, поэма “Кимё”, текстология, литографическая копия, табдил, сравнительный анализ, Сади Гедик, чагатайский язык, суфийская литература.

Abstract. This article presents a comparative-textual analysis of the lithographic and modern editions of the mathnawi “Kimyo” (The Chemistry of Spirit), attributed to Boborahim Mashrab. The research examines the 1898 and 1906 Tashkent lithograph copies, the transcribed edition “Kîmyâ Mesnevisi” (2020) by Turkish scholar Sadi Gedik, and the modern Uzbek adaptation (tabdil) by Habibulloh Akmalxon (Tashkent, 2023) as primary sources. Transcription discrepancies, variations in the rhyming system, terminological identities and differences, as well as editorial interventions during the adaptation process, are evaluated based on textual evidence.

Keywords: Boborahim Mashrab, “Kimyo” mathnawi, textual studies, lithograph copy, tabdil, comparative analysis, Sadi Gedik, Chag‘atai language, Sufi literature.

Kirish. O‘zbek mumtoz adabiyotining buyuk vakili Boborahim Mashrab (1640 – 1711) ijodi nafaqat o‘zbek, balki butun turkiy dunyo adabiyotshunosligi uchun muhim tadqiqot ob'yekti hisoblanadi. Shoirning tasavvufiy va falsafiy merosi ko‘plab qo‘lyozma va toshbosma nusxalar orqali bizgacha yetib kelgan. Biroq ayrim asarlarining muallifligi, matn tarkibi va nashrlararo munosabati matnshunoslik fanining hali yechilmagan masalalaridan bo‘lib qolmoqda.

“Kimyo” masnaviysi bu jihatdan ayniqsa murakkab tarixga ega. Uzoq muddat bu asar boshqa bir ijodkor – Ro‘ziboy Mashrabga nisbat berilgan; XX asr ikkinchi yarmida matnshunoslar buning asossizligini isbotlab, asarni Boborahim Mashrabga qaytardilar.

Bugungi kunda “Kimyo” uchta asosiy nashr orqali ilmiy muomalada: toshbosma nusxalar (1898, 1906), turk olimi Sadi Gedikning transkripsiyali nashri (2020) va zamonaviy o‘zbek tabdili (2023). Ushbu uch manba o‘rtasidagi matniy farqlar, ularning sabablari va birlamchi matn masalasi yaxlit ilmiy tadqiqot sifatida o‘rganilmagan. Aynan shu bo‘shliqni to‘ldirish maqolaning asosiy maqsadini belgilaydi.

Adabiyotlar sharhi. Maqolaning metodologik asosini qiyosiy-tekstologik tahlil, tasniflash, tavsiflash va tizimlashtirish usullari tashkil etadi.

Asarning nusxashunoslik asoslari. Boborahim Mashrab merosi alohida devon shaklida bizgacha yetib kelmagan – uning asarlari xalq kitoblari, bayozlar va qalandarshunoslik to‘plamlari orqali tarqalgan. “Kimyo” asari odatda “Mabdayi nur” bilan birgalikda muqovalanib kelgan bo‘lib, bu barcha ishonchli nusxalarda kuzatiladigan barqaror an‘ana sifatida Sadi Gedik tomonidan ilmiy jihatdan tasdiqlangan (S.Gedik, 2020: 17).

Tadqiqotimizda uchta asosiy manba qo‘llanildi. Birinchi manba – toshbosma nusxalar: 1898-yilda Toshkentda chop etilgan nusxa (108 sahifa, “Mabdayi nur” bilan birga muqovalangan) va 1906-yilda (H. 1323-1324) chiqarilgan nusxa (“Kimyo” 350-462-sahifalarda). Ushbu nusxalar nastaliq xatida toshbosma usulida ko‘paytirilgan bo‘lib, arxaik lisoniy qatlamni deyarli o‘zgartirmasdan saqlagan.

Ikkinchi manba – Sadi Gedik nashri (Turkiya, 2020): 1898-yilgi Toshkent toshbosmasi asosiga tayangan, chig‘atoy tilining transkripsiya va tarjimasini o‘z ichiga olgan, asarning 2421 baytdan iborat ekanligini ilk bor ilmiy asoslagan. Olimning nashri o‘zbekistonlik matnshunoslik yutuqlarini Yevropa va Turkiya ilmiy doiralariga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Uchinchi manba – Habibulloh Akmalxon tabdili (Toshkent, Anorbooks, 2023): zamonaviy o‘zbek tiliga moslashtirilgan, lug‘aviy izohlar bilan ta‘minlangan, keng kitobxon ommasiga mo‘ljallangan nashr.

Asarning tarkibiy va kompozitsion xususiyatlari. Sadi Gedik o‘z tadqiqotida “Kimyo” masnaviysining 2421 baytdan iborat ekanligini ilmiy asosda dalilladi. Bu ko‘rsatkich barcha ishonchli nusxalardagi hajmiy o‘lchovga mos keladi. Kompozitsion jihatdan asar qat‘iy mantiqiy tuzilishga ega: har bir bob (kimyo) hikmatli misralar bilan boshlanadi, so‘ngra ularning isboti sifatida hikoyat keltiriladi. Bu “nazariya va amaliyot” uyg‘unligi asarni klassik didaktik masnaviy an‘anasining yuksak namunasiga aylantiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Asarning boshlanishi (1-Kimyo) dunyo o‘tkinchiligini anglash, nafsga qarshi kurashga chaqiriqni ifodalasa, yakuniy qism (22-Kimyo) mutlaq kibrsizlik g‘oyasi bilan tugallanadi: inson o‘zini eng kichik zarradan ham past tutish orqali Haqqa yetishadi. Bu qurilma “Kimyo” so‘zining ramziy ma‘nosini ochib beradi – mis kabi past ruhni oltin kabi yuksak ma‘naviyatga aylantirish. Asar matnining kompozitsion butunligi uchala nusxada ham yaxlit saqlangan. Bu Mashrab dostonining matniy barqarorligidan dalolat beradi.

Nusxalarning qiyosiy matniy tahlili.

Qofiya tizimidagi farqlar. Qiyosiy tahlil ko'rsatgan eng yorqin farqlardan biri qofiya tizimiga oid. Quyidagi baytni ko'rib chiqamiz:

*Rafiq erdi g'ami osh-u g'ami non,
Yaqin keldi g'ami margu, g'ami jon.*

Toshbosma va Akmalxon nashrida bu bayt "non – jon" qofiyasi bilan berilgan. Mantiqiy jihatdan bu ziddiyat asoslidir: butun umr tiriklik (non) tashvishi bilan yashagan insonga umri nihoyasida jon tashvishi kutadi. Biroq Sadi Gedik nashrida qofiya "non – non" shaklida takrorlanmoqda. Mumtoz she'riyat me'yorlariga ko'ra bunday takror qofiya (ayb) qabul qilinmaydi. Mashrabning aruz qoidalariga puxta ekanligi hisobga olinsa, "non – non" varianti uning qo'li ostidan chiqqan matn bo'la olmaydi. Bu holat Sadi Gedik tomonidan tayanilgan qo'lyozmadagi yoki transkripsiya jarayonidagi xatodan kelib chiqqan, deb baholash to'g'ri.

Natijalar va tahlillar. Eng muhim leksik farq "jandapushe" so'zi atrofida uchraydi. Toshbosma nusxada nastaliq xatida bu so'z "jandapushi" >پوشى جنده> shaklida aniq yozilgan. "Janda" fors tilida yamoq kiyimni anglatadi va Mashrab ijodida darvesh timsolini ifodalashning asosiy vositasidir: u dunyo ahlining dabdabasiga zid o'laroq faqirlikni tanlagan komil insonni ko'rsatadi.

Biroq Sadi Gedik nashrida bu so'z "zinde-pūşe" (tirik kiyimli) deb o'qilgan. Xattotlikda "janda" va "zinda" so'zlari birgina nuqtaning o'rni bilan farqlanadi. Sadi Gedik bu nuqtani noto'g'ri o'qib, baytdagi darvesh obrazining talqiniga to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir ko'rsatgan. "Tirik kiyimli" birikmasi tasavvuf an'anasida o'rnatilgan "jandapush" poetik timsolini yo'qotadi.

Yana bir muhim farq "pasrafta" (forscha: "orqada qolgan", "ma'naviy sustkash") so'zida ko'zga tashlanadi. Akmalxon tabdilida bu so'z saqlanib, maxsus izoh berilgan; Sadi Gedik nashrida esa uning o'rnida "bes fitne" birikmasi ishlatilgan.

Grammatik va morfologik farqlar. Grammatik darajadagi farqlar chig'atoy tili bilan zamonaviy o'zbek tili o'rtasidagi tabiiy evolyutsiyani aks ettiradi. "Eyledig" (Sadi Gedik, arxaik chig'atoycha shakl) va "aylading" (Akmalxon, zamonaviy shakl) farqi lisoniy-tarixiy jihatdan muhim bo'lsa-da, mazmuniy o'zgarishga olib kelmaydi.

Biroq "batqan" (botgan, g'arq bo'lgan) va "yotgan" farqi ma'noli farqdir. Toshbosma nusxada "batqan" aniq yozilgan bo'lib, Sadi Gedik nashri ham ayni shu shaklni beradi. Akmalxon nashrida esa "yotgan" shakli berilgan. "Botgan" so'zi g'aflatning chuqurligi va undan chiqib keta olmaslikni ifodalaydi – bu ma'no Mashrabning tasavvufiy uslubiga ko'proq mos keladi.

Nusxalararo asosiy farqlar jadvali

Matniy birlik	Toshbosma nusxa (1898, 1906)	Sadi Gedik nashri (2020)	Akmalxon tabdili (2023)
Qofiya tizimi	non – jon (to'g'ri aruz)	non – non (takror qofiya xatosi)	non – jon (tabdil qilingan)
Leksik termin	jandapushi (Darveshlik)	zinde-pūşe (Mantiqiy)	jandapush (Asl ma'no)

	ramzi)	xatolik)	saqlangan)
Tasavvufiy tushuncha	pasrafta (Orqada qolgan)	bes fitne (Matniy o'zgarish)	pasrafta (Izoh bilan berilgan)
Morfologik shakl	batqan (G'arq bo'lgan)	batqan (Arxaik saqlangan)	yotgan (Ma'no biroz sayqallangan)

4. Tabdil tamoyillari va matniy transformatsiyalar

Zamonaviy tabdil jarayonida Habibulloh Akmalxon bir qancha matnshunoslik tamoyillariga amal qilgan. Qiyosiy tahlil bir qator tendentsiyalarni aniqladi: chig'atoy turkchasi arxaik shakllari zamonaviy o'zbek tiliga o'zgartirilgan; murakkab forscha-arabcha so'zlar maxsus izohlar bilan ta'minlangan; baytlar tartibi, bob chegaralari va asarning kompozitsion tuzilishi to'la saqlangan.

Xulosalar. Toshbosma nusxa birlamchi manba bo'lib, eng ishonchli matni saqlagan. Sadi Gedik nashri chig'atoy matnini xalqaro miqyosda tanitgan, biroq transkripsiyaviy xatoliklarga yo'l qo'yilgan. Akmalxon tabdili toshbosma nusxa mantiqiga va badiiy ohangiga ancha yaqin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mashrab, Boborahim. Kimyo. – Toshkent: Anorbooks, 2023. – 224 b.
2. Sadi Gedik. Kîmyâ (Çağatayca Bir Mesnevi): İnceleme-Metin-Çeviri-Dizin-Sözlük-Tıpkıbasım. – Kahramanmaraş: Hiperyayın, 2020. – 462 b.
3. Fitrat, Abdurauf. Tanlangan asarlar. II jild. Ilmiy asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 208 b.
4. Abdullayev V. O'zbek adabiyoti tarixi. II kitob. – Toshkent: O'qituvchi, 1980. – 348 b.
5. Hoshimxonov Mo'min. Mashrabi mo'tabar o'zum. I kitob. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 410 b.

NOKIŞ MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934